

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI SHAXSI VA
RUHIYATINI O‘RGANISHDA SINF RAHBARIGA
QO‘YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR**

Husanova Madinaxon Umidjon qizi

Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ruhiyatini , ular psixaloyiyasi, shaxsini ,ichki dunyosini o‘rganish va bu borada pedagogdan talab etiladigan mahorat bilim va ko‘nikmalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, pedagog, boshlang‘ch sinf, mahorat, psixaloyiya, sinf, jamoa, tarbiya.

**PEDAGOGICAL REQUIREMENTS FOR THE HEAD OF THE
CLASS IN STUDYING THE PERSONALITY AND
PSYCHOLOGY OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS**

Husanova Madinaxon Umidjon qizi

4 th. Course student of Kokand State Pedagogical Institute

Abstract: In this article, the psyche of elementary school students, their psychology. The study of the inner world of the person and the knowledge and skills required of the pedagogue in this regard ar discussed.

Key words: student, pedagogue, primary, class, skill, psychology, class, community, upbringing.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk yillardanoq ta’lim sohasini rivojlantirish va uni yangi bosqichga olib chiqish, yurtimizning keyingi rivojlanishi

bevosita ta'lim- tarbiya natijasiga bog'liq ekanligi haqida aytilib bu so'zlar amalda o'z isbotini topib kelmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilab berilgan ijtimoiy vazifalardan kelib chiqib yosh avlod ta'lim- tarbiyasini tashkil etishni kundalik hayotning o'zi talab qilmoqda.

Ta'lim sohasining asosiy bo'g'ini bo'lmish boshlang'ich sinflarda sifatli ta'lim berish, o'quvchilarni yoshlidan o'z fikrini aniq bayon eta oladigan ma'naviy jihatdan tarbiyali avlod qilib kamol topdirish pedagoglardan katta mahorat talab etmoqda. Bu borada mакtabga ilk qadam qo'ygan bolalarni ruhiyatini va shahsini o'rganishda sinf rahbarining o'rni alohida.

So'ngi yillarda sinf rahbarining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Jamiyatda o'qituvchini, birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ularga har tomonlama bilim berishdan iborat bo'lgan ma'suliyatli vazifalarni bajaradi. Yurtboshimiz ham ta'lim- tarbiyani dolzarb masala sifatida ko'tarmoqda. Hattoki pedagoglar bilan bo'lgan suhbatlarida maktab ta'limini yangi bosqichga olib chiqib buni O'zbekiston tarixida uchinchi renesans deb ataymiz dedilar. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega ajdodlarning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat degan fikrlari yana bir bora boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga ma'suliyat yuklaydi.

Sinf rahbarining muhim vazifalaridan biri bu o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish , bilim qobilyatini rivojlantirish, ularning salomatligini muhofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish ularni sinf orasida obrosini oshirish, har bir o'quvchi bilan o'z shaxsiyatiga mos qilib suhbat olib borish, ularga tegishli yordam ko'rsatish sinf rahbarining asosiy vazifasidir. Boshlang'ich sinf rahbari bolalarga tarbiyaviy ta'sir etish omillarini aniqlab olishi lozim. Sinf rahbari o'z o'quvchilarini bilishi ularga qanday psixalogik yondashishda o'quvchini individual xususiyatlarini hamisha inobatga olmog'i zarur. Boshlang'ich sinf bilan ishlashda ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, o'quvchini o'rganish pirovard maqsad emas balki uni o'rganish zaruriy shart sharoitdir. O'quvchilarni ruhiyatini o'rganishni rejali tarzda va

muntazam olib borish darkor. O‘quvchi xulq atvorida uchraydigan va tasodifiy voqealarni emas, balki uning shaxsida juda ko‘p uchraydigan tipik xususiyatlarni o‘rganmoq kerak. Shuni hisobga olmoq kerakki, o‘quvchilar har doim o‘sibrivojlanib boradi va shu bilan birga qiziqishlari ham doimiy o‘zgarib turadi. Shuning uchun ular bilan bolalar olamida yashaganday suhbatlashmoq ularni e’tibor bilan tinglamoq kerak. O‘quvchilarni shaxsiyatini o‘rganishda ularni oilaviy hayoti va turmush sharoiti bilan tanishish, chunki ularni ta’lim –tarbiya olish jarayonida uy sharoiti, tashqi muhit ham inobatga olinadi. Butun bir sinf tarbiya ishlari o‘qituvchiga yuklanar ekan u har bir o‘quvchi bilan chin dildan suhbat olib bormog‘i lozim. Shundagini bola ichki olamiga kirib bora oladi. Maktab dargohiga qadam qo‘yan bola borki o‘z o‘qituvchisini ko‘z o‘ngida barkamol shaxs deb biladi. Shuni inobatga olgan holda sinf rahbar ularga o‘rnak va namuna bo‘lishi kerak. Shuningdek sinf rahbari tashkilotchilik funksiyasi tarbiya jarayonida muhim vosita sanaladi.chunki tashkilotchilik tushunchasining o‘zi keng ma’noga ega . Maxsus bir maqsadni ko‘zlab u yoki bu ishni tadbiriy chorani tashkil etish sinf rahbaridan katta malaka va mahoratni talab etadi. Tarbiyaviy ishlarni olib borishda albatta o‘quvchilar yosh doirasiga va ularni mantiq tafakkur tushunish nuqtai nazarlarini inobatga olish zarur. Nazorati ostida bo‘lgan sinf o‘quvchilarini doim kuzatib borish ularni o‘rganish jarayonida yaxshi samara beradi deb o‘ylayman.

*o‘quvchilarining bilim darajasi, reytinga ko‘ra a’lochi va o‘zlashtirishi qiyin o‘quvchilar soni

*milliy tarkibi

*sinfda va parallel sinflar o‘rtasida tutgan o‘rni

*o‘quvchining yashash joyi

* nimalarga qiziqishi va qaysi fanlarni sevib o‘rganishi

*ota –onasi yo‘q o‘quvchilar

* yordamga muhtoj o‘quvchilar

Sinf rahbari o‘quvchilarni o‘rganish jarayonida dastlabki to‘playdigan ma’lumotlari shulardan ibotar. Sinf rahbarining bosh vazifasi , bolalar jamoasini

mohirlik bilan boshqarish, tashabbuskorligini o'stirish, sinf jamoasi faolligi va mustaqillligini tarkib topdirishdan iborat. Demak yuqoridagilarga tayangan holda sinf rahbarining faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

Sinf rahbariga qo'yiladigan talablar:

- 1.Yuqori g'oyaviy va onglik
- 2.obro va ehtirom va hurmatga ega bo'lishlik
- 3.pedagogik mahorat
- 4.madaniy qobiliyatning mavjudligi
- 5.yosh avlodga nisbatan hurmat va ehtiromda bo'lish
- 6.tarbiya ishlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish
- 7.tashkilotchilik
- 8 psixalogik bilim va tushunchalarga ega bo'lishlik
9. bolalarni sevish va mehrli etiborli bo'lish
10. sinfidagi o'quvchilar uchun maktab dargohida javobgar shahs ekanini his qilish

Pedagogning o'quvchilarga bo'lgan munosabati mehr , hayrihohlikdan iborat bo'lishi kerak . ma'lumki rivojlanishga yordam berish murakkab jarayon bo'lib , o'quvchilar oldiga talablar qo'yib o'zi shu talablarni faqat qanday bajarilayotganini kuzatib borishning o'zi yetarli degan xulosaga kelgan pedagoglar katta xatoga yo'l qo'yadilar. Har tomonlama barkamol avlod tarbiyasi ,ta'lim tarbiya va rivojlanishni o'zaro bog'liq tarzda amalga oshirishni taqazo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1 Karimov I. A" Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" "O'zbekiston" 1998 yil
- 2.Ochilov M. "Muallim -qalb me'mori" O'qituvchi 2001
- 3.internet saytidan – ziyo.uz